O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Oq qo‘ziqorinlarni sotish va ularning tijorat sifatini nazorat qilishga doir standarti

(FVV-54:2023, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #DAXVP6IEUP - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21-iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart FVV-54:2023 “concerning the marketing and commercial quality control of CEPS ” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #DAXVP6IEUP - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qishloq xo‘jaligi sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (BMT YeIK) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari standari bo‘yicha ishchi guruhining tijorat standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga ko‘maklashadi, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi va rentabellikni oshiradi.

Ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar manfaatlarini himoya qiladi. BMT YEIK standartlari hukumat tashkilotlari, ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar, import va eksport qiluvchilar, shuningdek, boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llaniladi va yangi meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mevalar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo har qanday mamlakat ishchi guruh faoliyatida teng ishtirok etishi mumkin. BMT EEKning qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlarni bizning veb-saytimizdan olishingiz mumkin: http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html.

Oq qo‘ziqorinlar bo‘yicha amaldagi ushbu Standart ECE/TRADE/C/WP.7/GE.1/2010/INF.41 hujjatiga asoslangan bo‘lib, ishchi guruhning oltmish beshinchi sessiyasida ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan.

Ushbu nashrda qo‘llanilgan nomlar va materialning taqdim etilishi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Kotibiyati tomonidan biror-bir mamlakat, hudud, shahar yoki mintaqaning yoxud ularning hukumatlarining huquqiy maqomi, yoki ularning chegaralarini belgilash borasida har qanday fikr bildirilishini anglatmaydi. Kompaniya nomlari yoki tijorat mahsulotlarining eslatib o‘tilishi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ularni qo‘llab-quvvatlashni anglatmaydi.

Barcha materiallardan erkin iqtibos keltirilishi yoki qayta nashr etilishi mumkin, biroq manbaga havola ko‘rsatilishi so‘raladi.

Har qanday fikr-mulohaza yoki so‘rovlar bo‘yicha quyidagi manzilga murojaat qilishingizni so‘raymiz:

Qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘limi
Iqtisodiy hamkorlik va savdo bo‘limi
BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi
Palais des Nations CH-1211 Jeneva 10, Shveytsariya
E-pochta: agristandards@un.org»

STANDARTLAR INSTITUTI #DAXVP6IEUP - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

OQ QO‘ZIQORINLARNI SOTISH VA ULARNING TIJORATSIFATINI NAZORAT QILISHGA DOIR STANDARTI

СТАНДАРТ КАСАЮЩИЙСЯ СБЫТА И КОНТРОЛЯ ТОВАРНОГО КАЧЕСТВА БЕЛЫХ ГРИБОВ

STANDARD FOR CONCERNING THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF CEPS

Amalga kiritish sanasi 01.08.2026-yil.

I Mahsulotni belgilash

Ushbu standart qoidalari iste’molchiga yangi uzilgan holatda yetkazib beriladigan Boletus edulis Bull., Boletus pinophilus Pil. va Dermek, Boletus reticulatus Schaeff. hamda Boletus aereus Bull. turlariga mansub oq qo‘ziqorinlarning mevali tanalariga nisbatan qo‘llaniladi; sanoat usulida qayta ishlashga mo‘ljallangan oq qo‘ziqorinlar ushbu standart doirasiga kirmaydi.

II Sifatga oid qoidalar

Ushbu standartning maqsadi tayyorlash va qadoqlash jarayonlaridan keyin oq qo‘ziqorinlarga qo‘yiladigan sifat talablarini belgilashdan iborat. Biroq, standart eksport qilishdan/jo‘natishdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilganda, mahsulotlarda standart talablariga nisbatan quyidagi o‘zgarishlar kuzatilishi mumkin:

yangilik darajasi va tarangligining biroz pasayishi;

Oliy sinfdan tashqari boshqa sinflarga mansub mahsulotlar uchun — ularning rivojlanishi va tez buzilishga moyilligi sababli sifatning biroz yomonlashishi.

Mahsulotga egalik qiluvchi/sotuvchi shaxs ushbu standart talablariga muvofiq bo‘lmagan mahsulotlarni namoyish qilishi, sotuvga qo‘yishi, yetkazib berishi yoki har qanday boshqa usulda muomalaga kiritishi taqiqlanadi. Mahsulotga egalik qiluvchi/sotuvchi ushbu muvofiqlikning saqlanishi uchun bevosita javobgardir. Mulkdor/sotuvchi bunday muvofiqlikka rioya qilish uchun javobgardir.

A. Minimal talablar

Har bir nav uchun belgilangan maxsus qoidalar va yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlarni hisobga olgan holda, barcha nav oq qo‘ziqorinlar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- butun bo‘lishi; qo‘ziqorinning oyoqchasi kalpokchasiga birikkan bo‘lishi kerak; ildizining tuproq tekkan qismini kesib tashlashga ruxsat beriladi; uzunlamasiga o‘q bo‘yicha teng ikki bo‘lakka kesilgan oq qo‘ziqorinlar ham butun deb hisoblanadi;
- sog‘lom bo‘lishi; iste’molga yaroqsiz qiladigan darajada chirigan yoki sifati buzilgan mahsulotlar bundan mustasno (bunday mahsulotlarga yo‘l qo‘yilmaydi);
- mog‘ordan xoli bo‘lishi;
- toza bo‘lishi, ildiz qismidagi ozroq tuproq izlaridan tashqari, ko‘zga ko‘rinadigan har qanday yot moddalardan amalda xoli bo‘lishi kerak;
- ijobiy jixatdan aniklanadigan
- qattiq bo‘lishi;
- zararkunandalardan amalda xoli bo‘lishi;
- zararkunandalar yetkazgan zararlardan amalda xoli bo‘lishi;
- to‘q yashil yoki qoramtir tusdagi g‘ovak qatlamdan xoli bo‘lishi;

STANDARTLAR INSTITUTI #DAXVPSIBUP - 25.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

- ortiqcha tashqi namlikdan xoli bo‘lishi;
- har qanday yot hid va/yoki ta’mdan xoli bo‘lishi.
- Oq qo‘ziqorinlarning rivojlanish darajasi va holati quyidagilarni ta’minlashi kerak:
- tashish va yuklash-tushirish jarayonlariga bardosh bera olishi;
- belgilangan manzildagi qabul qilish joyiga qoniqarli holatda yetib borishi.

B. Tasniflash

Oq qo‘ziqorinlar quyida belgilangan uchta navga bo‘linadi:

(i) Oliy nav

Ushbu navga mansub oq qo’ziqorinlar eng yuqori sifatga ega bo‘lishi lozim. O‘z turiga xos bo‘lgan barcha xususiyatlarni aks ettirishi lozim. Qalpoqga ostidagi g‘ovak qatlami mutlaqo oq rangda bo‘lishi kerak.

Mahsulotlar nuqsonlardan xoli bo‘lishi lozim; juda kichik, tashqi nuqsonlar bundan mustasno, ushbu nuqsonlar mahsulotning umumiy ko‘rinishiga, sifatiga, saqlash muddatiga va qadoqdagi taqdimotiga ta’sir ko‘rsatmasa.

(ii) Birinchi nav

Ushbu sinfga mansub oq qo‘ziqorinlar yaxshi sifatli bo‘lishi shart. Ular o‘z turiga xos bo‘lgan xususiyatlarni aks ettirishi lozim. Biroq, mahsulotning umumiy ko‘rinishiga, sifatiga, saqlash muddatiga va qadoqdagi taqdimotiga ta’sir ko‘rsatmaslik sharti bilan quyidagi yengil nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

-zararkunandalar yetkazgan yengil nuqsonlar;
-yengil nuqsonlar;
-tuproq qoldiqlarining yengil izlari;
-biroz sarg‘ish tusdagi g‘ovak qatlam

(iii) Ikkinchi nav

Ushbu sinfga yuqori navlarga kiritish talablariga javob bermaydigan, biroz yuqorida ko‘rsatilgan minimal talablarga esa qoniqarli darajada javob beradigan oq qo‘ziqorinlar kiritiladi. Ular o‘z turiga xos xususiyatlarni aks ettirishi lozim. Oq qo‘ziqorinlar sifat, saqlash muddati va taqdimot bo‘yicha o‘zlarining asosiy xususiyatlarini saqlab qolishi sharti bilan quyidagi nuqsonlarga yo‘l qo‘yiladi:

-zararkunandalar yetkazgan shikastlanishlar;
-shikastlanishlar;
-tuproq qoldiqlarining izlari;
-jigarrang tusga kirgan g‘ovak qatlam.

Har bir oq qo‘ziqorin o‘zining asosiy xususiyatlarini saqlab qolishi sharti bilan, uning shikastlangan qismlarini hamda yumshab qolgan g‘ovak qatlamini olib tashlashga ruxsat beriladi.

III. O‘lchamlarga oid qoidalar

O‘cham qalpoqchaning ko‘ndalang kesimining maksimal diametri bo‘yicha belgilanadi.

O‘lcham bo‘yicha bir xillikni ta’minlash maqsadida, bir xil qadoqdagi mahsulotlar o‘rtasidagi o‘lchamlar farqi (kalibrlash amalga oshirilgan hollarda) 5 mm dan, oshmasligi lozim.

IV. Ruxsat etilgan og‘ishlar

Mahsulot sotilishining barcha bosqichlarida, ko‘rsatilgan sinf talablariga javob bermaydigan mahsulotlar uchun har bir partiyada sifat va o‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan og‘ishlar miqdoriga yo‘l qo‘yiladi. [1]

STANDARTLAR INSTITUTI #DAXVP6IEUP - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

[1] Muvofiqlikni tekshirish birlamchi yoki birlashtirilgan namunalarni baholash orqali amalga oshiriladi. Bu tekshirish tavakkalchilik asosida tanlab olingan namunalarning sifati butun turkumning sifatini aks ettiradi, degan taxmin tamoyiliga asoslanadi. Muvofiqlikni tekshirish bo‘yicha Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT / OECD) Operatsion qoidalarini jo‘natish bosqichlarida, shuningdek, ulgurji savdo va tarqatish markazlarida hamda oziq-ovqat mahsulotlarining chakana savdo omborxonalarida qo‘llash — shu jumladan, bozor ishtirokchilari tomonidan ham qo‘llanilishi — tavsiya etiladi.

A. Sifat bo‘yicha ruxsat etilgan og‘ishlar

(i) Oliy nav

Ushbu sinf talablariga javob bermaydigan, biroq I sinf (birinchi sinf) talablariga muvofiq keladigan oq qo‘ziqorinlarning umumiy ruxsat etilgan og‘ish miqdori donalar soni yoki og‘irligiga nisbatan ko‘pi bilan 5 foizni tashkil etishiga yo‘l qo‘yiladi. Ushbu ruxsat etilgan og‘ish miqdori doirasida II sinf sifati talablariga javob beradigan mahsulotlarning ulushi jami 0,5 foizdan oshmasligi shart.

(ii) Birinchi nav

Ushbu sinf talablariga javob bermaydigan, biroq II sinf talablariga muvofiq keladigan oq qo‘ziqorinlarning umumiy ruxsat etilgan og‘ish miqdori donalar soni yoki og‘irligiga nisbatan ko‘pi bilan 10 foizni tashkil etishiga yo‘l qo‘yiladi. Ushbu ruxsat etilgan og‘ish miqdori doirasida ham II sinf sifati talablariga, ham eng kam talablarga javob bermaydigan mahsulotlarning, shuningdek, chirish alomatlari bo‘lgan mahsulotlarning ulushi jami 1 foizdan oshmasligi shart.

(iii) Ikkinchi nav

Ushbu sinf talablariga ham, belgilangan minimal talablarga ham javob bermaydigan oq qo‘ziqorinlarning umumiy miqdori 10 foizdan oshmasligiga yo‘l qo‘yiladi. Ushbu yo‘l qo‘yiladigan chetlanish doirasida jami mahsulot hajmining ko‘pi bilan 2 foizigacha bo‘lgan qismini chirish belgilari bo‘lgan mahsulotlar tashkil etishi mumkin.

Yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda, oyog‘i boshchasidan ajralgan oq qo‘ziqorinlarning miqdori 5 foizgacha bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.

B. O‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan og‘ishlar

Barcha sifat toifalari uchun (kalibrlash amalga oshirilgan hollarda) umumiy hisobda miqdori yoki vazni bo‘yicha 10 % gacha kalibrlash talablariga javob bermaydigan oq qo‘ziqorinlarning mavjud bo‘lishiga ruxsat etiladi.

V. Tovar ko‘rinishiga oid qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoq tarkibidagi mahsulotlar bir xil bo‘lishi hamda faqat bir xil kelib chiqish mamlakatiga, bir xil turga, sifatga va o‘lchamga mansub oq qo‘ziqorinlardan iborat bo‘lishi shart.

Qadoq tarkibining ko‘rinib turgan qismi butun qadoq tarkibiga to‘liq mos kelishi lozim.

B. Qadoqlash

Oq qo‘ziqorinlar mahsulotning lozim darajada himoya qilinishini ta’minlaydigan tarzda qadoqlanishi shart.

Qadoq ichida qo‘llaniladigan materiallar toza hamda mahsulotga har qanday tashqi yoki ichki shikast yetkazilishining oldini oladigan sifatga ega bo‘lishi lozim. Savdo tavsiflari yozilgan materiallardan, xususan, qog‘oz yoki muhrlardan foydalanishga, basharti matnni chop etish yoki

STANDARTLAR INSTITUTI #DAXVP6IEUP - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

yorliqlash zaharli bo‘lmagan siyoh yoki yelim yordamida bajarilgan bo‘lishi sharti bilan yo‘l qo‘yiladi.

Qadoqlarda hech qanday begona moddalarning bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi

VI. Tamg‘alashga oid qoidalar

Har bir qadoq[2] quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi shart: yozuvlar bir tomonda jamlangan, aniq o‘qiladigan, o‘chmaydigan tarzda belgilangan hamda tashqi tomondan ko‘rinadigan bo‘lishi lozim.

---

[2] Ushbu tamg’alash qilish qoidalari yuqorida ko‘rsatilgan ma’lumotlar mavjud bo‘lgan yirik qadoqlar ichiga joylashtirilgan chakana savdo o‘ramlariga nisbatan tatbiq etilmaydi. Biroq, ushbu qoidalar alohida sotiladigan chakana savdo oldindan qadoqlangan mahsulotlarga nisbatan majburiy tartibda qo‘llaniladi.

A. Identifikatsiya belgilar

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksportchi:

Nomi va yuridik manzili (masalan, ko‘cha/shahar/hudud/pochta indeksi hamda, agar kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, mamlakat nomi) yoki bunday tizimni qo‘llayotgan mamlakat BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi Kod belgilari reyestriga kiritilgan bo‘lsa, milliy vakolatli organ tomonidan rasman tan olingan kod belgisi. Ko‘cha nomi va uy raqami mavjud bo‘lmagan taqdirda, yuridk manzil sifatida fermer xo‘jaligi yoki ob’yektning nomi, eng yaqin qishloq, shahar, viloyat va pochta indeksi ko‘rsatilishi mumkin; yoki GPS koordinatalari hamda abonent pochta qutisi raqami eng yaqin shahar, viloyat va mamlakat nomi bilan birgalikda taqdim etilganda yuridik manzil sifatida qabul qilinadi.

B. Mahsulot tavsifi

Oq qo‘ziqorinlar – agar qadoq ichidagi mahsulotlar tashqi tomondan ko‘rinmaydigan bo‘lsa ushbu nom yozilishi shart;

Biologik turning nomi ixtiyoriy ravishda ko‘rsatiladi.

C. Mahsulotning kelib chiqishi

kelib chiqish mamlakati[6] va ixtiyoriy ravishda yetishtirilgan hudud yoki milliy, mintaqaviy yoxud mahalliy nomi.

D. Tijorat tavsiflari

nav;

o‘lcham (kalibrlash amalga oshirilgan hollarda), qo‘ziqorin qalpoqchasining santimetrda ifodalangan minimal va maksimal diametri ko‘rinishida ko‘rsatiladi.

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

2007-yilda qabul qilingan

Oxirgi marta 2010-yilda qayta ko‘rib chiqilgan

2023-yilgi Andozaviy maket talablariga muvofiqlashtirilgan

STANDARTLAR INSTITUTI #DAXVP6IEUP - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

[3] Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi ishlab chiqaruvchining nomi va manzili aniq ko‘rsatilishini talab etadi. Biroq, shartli kodli belgi qo‘llanilgan taqdirda, «qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi (yoki ularga tenglashtirilgan qisqartmalar)» degan ko‘rsatma ushbu kodli belgi bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rsatilishi shart. Shuningdek, agar ushbu belgi mahsulot ishlab chiqarilgan mamlakatga tegishli bo‘lmasa, kodli belgidan oldin uni rasman tan olgan mamlakatning/hududning ISO 3166 (alpha-2) standarti bo‘yicha ikki harfli kodi ko‘rsatilishi kerak.

[4] Qarang: http://www.unece.org/trade/agr/codemarkregistry.html.

[5] Amerika Qo‘shma Shtatlarining pochta qutisi (P.O. Box) manzilidan foydalanish bo‘yicha maxsus sharti mavjud, chunki bunday manzil mahsulot ishlab chiqarish ob’yektlarini tekshirish yoki mahsulotlarni bozordan qaytarib olish holatlarida tezkor chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini bermasligi mumkin, shuningdek, bu qoida ushbu mamlakatning qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksport qiluvchiga doir milliy tamg’alash talablariga kirmaydi.

[6] Mahsulotning to‘liq nomi yoki umumiy qabul qilingan nomi ko‘rsatilishi shart.

STANDARTLAR INSTITUTI #DAXVP6IEUP - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI